

MIRZO ULUG'BEK HAYOTI VA ILMIY-MA'RIFIY MEROSI

*Guliston davlat pedagogika instituti Datsenti, Tarix fanlari bo'yich
falsafa doktori (PhD)*

Mirzaliyev U

Tarix yo'nalishi 33/24-guruh talabasi

Noryigitova S

Annatatsiya: *Mirzo Ulug'bek hayoti va ijodi, va o'z davrining mashhur astronomi, tarixchisi, geografi, matematigi, musiqa ilmi ustasi, shu bilan birga davlat rivojiga hissa qo'shgan hukmdor hamdir asarlari va yozma manbalari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Samarqand, astronom, matematik rasadxona haqida ma'lumotlar, ulkan sekstant o'rnatilishi, Ulug'bek madrasasi va akademiyasi.*

Qomusiy olim Mirzo Ulug'bek haqida gapirayotgan bo'lsak hayotimizda va tariximizda tutgan o'rni benihoyat kattadir. Hozirgi kunda ham Mirzo Ulug'bekning tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarixchilar tomonidan to'plangan va o'rganilgan bilimlar majmuyi orqali biz Ulug'bekni hayoti va ijodi bilan qisqacha bo'lsada tanishib oldik. Bu buyuk shaxsni o'rganishda yurtimizga qilingan yurishlar natijasida ulkan hududlarni himoyasida turgani va ularga qarshi chiqib, o'z xalqi vatanini kelajagi uchun qo'shgan hissasi beqiyosdir. "Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berganini ko'rsatadi". Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Mirzo Ulug'bek buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi, Shohrux Mirzoning o'g'li, Amir Temurning nabirasi





deb aytib o'tilgan. Sohibqironning "Besh yillik yurishi"da (1392–1396) Iroqdagi Mordin qal'asi qamal qilish chog'ida tug'ilgan va munajjimlar bu nevar kelajakda hukmdor bo'lishini bashorat qilganlarini xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron hursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga, yuklangan to'lovni bekor qiladi. Keyin esa unga Ulug'bek deb ism qo'yganini munajjimlarning yoqoridagi bashorati bilan bog'lash mumkin. Shunday qilib Mirzo Ulug'bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tavallud topgan. Amir Temur Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixoning ma'lumotlariga qaraganda Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarining qabul qilishida, marosimlarda ishtirok etgan. 1409-yildan boshlab Ulug'bek Mirzo Movorounnahr hokimi bo'lgan. Ulug'bek Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Muso Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom asarlarini o'rganadi. Buyuk mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomeylar bilan tanishadi.

G'iyosiddin Jamshid Koshoniy yozishicha, Ulug'bek donishmand bo'lgan, Qur'oni Karimni aksariyat qismlarini yoddan bilgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morchilik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Ulug'bek madrasalar qurdiradi, masalan: Buxoroda (1417), Samarqand (1420), G'ijduvon (1432-1433) madrasalar va Marvda hayriya muassasalarini barpo ettirgan. Madrasada diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan, ko'proq aniq fanlarga e'tibor qaratilagan.

Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va ma'daniyatini O'rta Osiyo sharoitida dunyo fanining eng yugori pog'onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi – Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'ldi. Bu ilmiy maktabda 200dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yirkleri Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshoniylar edi. Samarqand yaqinidagi Obiraxmat hududidan rasadxona barpo ettiradi. Bu rasadxona 1424-



1429-yillarda qurilgan. “Boburnoma” kitobidagi ma’lumotlarga qaraganda rasadxonani balandligi 30.4 metrdan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Rasadxona o’rta asrlarda asbob uskunasi jihatidan ham beqiyos bo’lgan. Unda 10dan ortiq turli astronomik qurilma va asbob-uskunalar bo’lgan. Bu ilmiy asbob-uskunalar yordamida quyosh, oy, sayyoralar, alohida yulduzlar kuzatilgan. Mirzo Ulug’bekni eng yirik astronomik asari “Ziji jadidi Ko’ragoniy” rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug’bek taklifi bilan yig’ilgan qator mashhur olimlar G’iyosiddin Jamshid Koshoniy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog’liq. Ulug’bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yilda V.L.Vyatkin xabarligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida topilgan. Rasadxonada katta zallar va xonalar bo’lgan. Boburning yozishicha Ulug’bek rasadxonasining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona ichiga o’rnatilgan juda katta asbob-uskunalar yordamida quyosh, oy, sayyoralar, yulduzlar katta aniqlik bilan o’rganilgan. Rasadxonada kutubxona ham bo’lgan. Bu kutubxonada fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb 15ming jild kitob saqlangan. Ulug’bekning faol ishtiroki bilan Ulug’bek rasadxonasi osha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan birga mashhur matematik va astronomlardan “Aflotuni zamon” deb nom olgan Qozizoda Rumi, G’iyosiddin Jamshid Koshoniy, “O’z devrining Ptolomeyi” nomi bilan mashhur Ali Qushchi va ko’pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug’bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018ta qo’zg’almas(turg’un) yulduzning o’rni holati aniqlanib, ularning astronomik jadval ham tuzildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijasi asosida matematika va astronomiyaga oid bir qator nodir asarlar yaratildi: Ulug’bekning shox asari “Ziji jadidi Ko’ragoniy” (Ko’ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. Bu asar asosan 2ta qisimdan: keng muqaddima va 1018ta



qo'zg'almas(turg'un) yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek Ulug'brkning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor yog'i bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir. 1964-yil Ulug'bek rasadxonasi yonida Ulug'bek muzeyi ochilgan. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astranom va matematik deb hisoblanar edi. Lekin uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy" asarida Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand va "To'rt ulus tarixi"ni ham yozib qoldirgan edi deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "Tarixi arba ulus" asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarining XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ulug'bekning asrtonomiya maktabi o'z davrining o'ziga xos akademiyasi edi. Ulug'bek uyishgan 200dan ortiq olimlarning o'z bag'rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o'tagan. Mashhur fransuz faylasufi yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778) "Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini olchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishturok etdi" – deb yozgan edi. Ulug'bekning astronomiya maktabi o'rta asrlar musulmon sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim – Ali Qushchini Ulug'bek "Ziji" ning so'z boshisida "farzandi Arjumand" (aziz farzandim) deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib "Zij" ustida ishlar poyoniga yetkazilgunga qadar ustoziga yordam bergan. Ulug'bek Samarqandda ikkita madrasa: biri – Registon ansanbili tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansanbili tarkibida barpo qilgan. Uning o'zi ham bu madrasalarning har birda haftada bir marotaba maruza o'qigan. Boshqa vaqtini koproq



asrtomik kuztishlarga, “Zij” ustida ishlashga va davlat ishlariga bag‘ishlagan. Ulug‘bekni yana bir matematik asari “Risolayi Ulug‘bek” deb ataladi va uning bir nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o‘rganilmagan balki u ham hisoblash matematikasiga aloqadordir. Fan va ma’daniyat tarixida so‘nmas iz qoldirgan Ulug‘bekning ilmiy merosi uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asaridir. Bu asar sayyorlar, quyosh va oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo‘llanilgan matematik usullar bo‘yicha o‘rta asrlardagi astronomik asarlarining eng mukammali bo‘lganligi uchun avvalambor u musulmon davlatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan edi

Ulug‘bekning nomi Yevropada va umuman G‘arb mamlakatlarida buyuk bobosi Amir Temurning shuxrati tufayli ancha ilgari ma‘lum bo‘lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a‘zolari haqida birinchi bo‘lib Samarqandaga 1403-1405 yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi Klavixodan eshitgan. Klavixoning “Esdaliklar”i 1582-yil Sevilyada va Parjda nashr etilganidan so‘ng yevropaliklar darxol Amir Temur va uning oila a‘zolari bilan qiziqqanlar. Ulug‘bek nomi XVII asr boshidayoq (1601-yil) Amir Temurga bag‘ishlangan dramatik asarlarda uchraydi. Keyin yana bir ma‘lumot aytib o‘tish lozimki 1711-yilda Oksfordda Ulug‘bekning geografik jadvali 3 marta nashr qilingan. 1908-1909-yillarda V.L.Vyatkin Ulug‘bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi – kvadratni kovlab topgandan so‘ng Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlandi. 1918-yilda V.V.Bartoldning “Ulug‘bek va uning davri” asari nashr etilgan. Sovet davrida Ulug‘bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo‘yicha T.N.Qori Niyoziy ko‘p harakat qilgan. Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi 1994-yilning aprelida Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlanadi va xalqaro konfirensiyalar o‘tkaziladi. Xulosa qilib aytish mumkinki Mirzo Ulug‘bek vatanimiz tarixida bir buyuk kelajak avlodlar uchun ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. Yozib qoldirgan asarlaridagi ma‘lumotlar ham juda qimmatli boy tarixga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent “Ma’naviyat” – 2008-yil.
2. Axmedov Bo‘riboy “O‘zbekiston tarixi manbalari” – Toshkent “O‘qituvchi” – 1991-yil.
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” – Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti – 2005-yil.
4. Axmedov Bo‘riboy “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” – Toshkent “O‘qituvchi” – 1996-yil.
5. Sadriddin Salim Buxoriy “Tabarruk ziyoratgohlar” – Toshkent “Yozuvchi” – 1993-yil.